



## BUXORO XOXLIGIDA MADANIYAT VA SAN'AT, ME'MORCHILIK RIVOJI

**Rahmatov Murodjon A'zam o'g'li**

BuxDPI tarix ta'lim yo'nalishi 1-tar -22 guruh talabasi

**Yusupjonova Marjonaxon Asrorjon qizi**

BuxDPI tarix ta'lim yo'nalishi 1-tar -22 guruh talabasi

**Maxamadov Abduhoshim Mo'minjon o'g'li**

BuxDPI tarix ta'lim yo'nalishi 1-TAR-21 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10117251>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 03-November 2023 yil

Ma'qullandi: 10- November 2023 yil

Nashr qilindi: 13-November 2023 yil

### KEY WORDS

*Xoja Muhammad, Muhammad Shayboniy, Abdulazizxon II, Abdulazizxon, Xoja Hasan Nisoriy, Mirzo Ulug'bek, Ubaydulloxon, Buxoro, Kamoliddin Ibrohim, Muhammad Mazid, Tursun Zominiy, Mahmud ibn Ahmad Foriziy, Turkiya, Rossiya.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Shayboniy davlatida ta'lim sohasida o'tkazilgan islohotlar, Abdullaxon davrida qurilgan inshootlari, hamda, bu davrda ijod qilgan ijodkorlar va ularning asarlari, ilm-fanda qilingan yutuqlari haqida so'z boradi.*

Shayboniy davri madaniyatining rivojiga bevosita sulola vakillarining o'zlari sezilarli ta'sir ko'rsatdilar. Chunki sulolaning Muhammad Shayboniy, Ubaydulloxon, Rustam Sulton, Abdulazizxon, Abdulazizxon II va boshqa hukmdorlarning o'zlari o'qimishli kishilar bo'lishib, hatto she'riyatda qalam tebratganlar.

Shayboniy ta'lim sohasida ham islohot o'tkazdilar. Bu islohotning o'tkazilishiga amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni hokimiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zaruriyati sabab bo'ldi. Shayboniy davrida fan va madaniyat sezilarli darajada rivojlangan. Bunga ushbu sulola hukmdorlari orasidan o'z davrining yetuk ilm-fan arboblari yetishib shiganligi ham ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek bundan tashqari, Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek akademiyasi an'alarini davom ettiruvchi fidokor olimlar yetishib chiqdi. Masalan Samarqand va Buxoro madrasalarida madarrislik qilgan mavlono Kamoliddin Ibrohim, Abdullaxonning mullimi xo'ja Muhammad, yulduzshunos Qiyomiddin Shaydo, Hakim Shaxrisabziy, Jarroh mavlono Baqo, Muhammad Mazid, mavlono Rofe, Muhammad Husayn va Shiroq Samarqandiy, Shohali Sulaymon, Abdulkarim ibn Sulton shular jumlasidandir.

Abdullaxon II zamonida Buxoro xonligi da dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan, madaniy hayot ancha yuksalgan. Juda kup sug'orish inshootlari: Abdullaxon bandi, Tuyatortar kanali, Oqchopsoy to'g'oni va suv ombori, Vaxshdan chiqarilgan ko'plab ariqdarning qurilishi dehqonchilikni rivojlantirdi. Bu vaqtlarda Buxoro xonligi da bug'doyning 10 xil turi, suli, qo'noq, jo'xori, mosh, no'xat, makkajo'xori, loviya, sholi, paxta, kunjut, beda,

arpa, sabzavot va poliz ekinlari ekilgan, bog'dorchilik, chorvachilik va ipakchilik rivojlangan. Samarqand, Buxoro, Marg'ilon, Xo'jand, Andijon, Toshkent, Jizzax, O'ratepa, Shaxrisabz va boshqa yirik shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy qilgan. Samarqand qozi kalonining hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, 16-asrda Samarqandda hunarning 61 turi mavjud bo'lgan. Movarounnahrlik kosiblar zo'r san'at bilan turli tuman metall buyumlar, ip va ipak matolar, a'lo navli qog'ozlar ishlab chiqarganlar. Buxoro shahri bir muncha kengaytirilgan, devor va harbiy istehkomlar qaytadan qurilgan. Shaharda madrasalar, xonaqoh va karvonsaroylar, yangi rastalar barpo qilingan. Shaharlar o'rtasidagi savdo yo'llarida tim (Abdullaxon timi), ko'chalar chorrahasi ustiga gumbaztoqlar, hammomlar, karvon yo'llarida sardobalar, karvonsaroylar, ko'priklar qurilgan. Shayboniylar zamonida Buxoro xonligi ning Hindiston, Turkiya, Rossiya bilan savdo va diplomatik munosabatlari rivojlangan.

Samarqand va Buxoro madrasalarida mudarrislik qilgan mavlono Kamoliddin Ibrohim, Abdullaxonning muallimi Xoja Muhammad, yulduzshunos Qiyomiddin Shaydo, iftixor ul-atibbo (tabiblar iftixori) unvonini olishga sazovor bo'lgan Muhammad Mazid, Hakim Shahrizabziy, jarroh mavlono Baqo, mavlono Rafe, 1541-yilda ilmi tibb va dori-darmonlar haqida asar yozgan Muhammad Husayn ibn Shiroq Samarqandiy, ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan Shohali ibn Sulaymon, Xoja Hakim (vafoti 1585), natijat-ul-atibbo unvonini olgan Abdulhakim ibn Sulton Mahmud kabilar shular jumlasidandir. Xoja Hasan Nisoriy "Muzakkiri ahbob" asarida matematika va astronomiya ilmida shuhrat topgan mavlono Kavkabiyni alohida qayd etadi. Matematika va astronomiya sohasida yozilgan kitoblardan Muhammad Amin ibn Ubaydulla Mo'minobodiyning "Hisobi amali shabaka", (Shabaka jadvali amali hisobi; 1550), Bobokalon muftiy Samarqandiyning "Risola dar ilmi hisob", "Vaziyat bar sahor qism" Tursun Zominiyning "Tuxfayi amir", Muhammad Husayn munajjim Buxoriyning "Ma'rifat samti qibla" (Qibla tomonni topish ma'rifati) Mahmud ibn Ahmad Foriziyning "Risola dar muaddili qamar" (Oy fazolarining tengligi haqida risola; 1517), Tojis-Sayidiyning "Hoshiy li shahri ashkoli ta'sis" (Asoslash shakllari sharhiga izohlar; 1568), Said Muhammad Tohir Ibn Abul-qosimning, "Ajoyib ut-tabaqot" (1545-1550) asarlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiy 1526-yili "Dastur al-iloj", "Muqaddimoti dastur al-iloj" (Davolash bo'yicha dastur) asarlarini yozgan. Ubaydulloh Qahhol ibn Muhammad Yusuf ham o'z davrining yetuk tabibi, tib olimi, Baroqxonning o'rtancha o'g'li Toshkand hokimi Darvishxonning buyrug'iga binoan 1598-yilda "Shifo ul-ilal" (Kasalliklar shifosi) asarini yozadi. Asar 500 varaqdan ko'p bo'lib, uzoq vaqtgacha tib ilmidan asosiy qo'llanma tarzida undan foydalanilgan. Bir necha bitik nusxasi bizgacha yetib kelgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Karimov – "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch"-2008-yil.
2. I.A.Karimov – "Xavfsizlik va barqarorlik yo'lida" - 1998-yil.
3. U.Qoraboyev, G'.Soatov – "O'zbekiston madaniyati"-2011-yil.
4. Azamat Ziyo – "O'zbek davlatchiligi tarixi"-2000-yil.
5. Q.Usmonov, U.Jo'rayev, N.Norqulov – "O'zbekiston tarixi"-2014-yil.
6. U.Qoraboyev, G'.Soatov – "O'zbekiston madaniyati"-2011-yil.